




SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



SAMARQAND VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2022- YILNING YANVAR-FEVRAL OYLARIDA



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral

Zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari orasida xizmatlar sohasi ustunlik qiladi.

Ilg'or mamlakatlarning zamonaviy rivojlanish darajasi turli xil xizmatlar ishlab chiqsh va ularning bozorini jadal rivojlanishini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish darajasi jamiyat shakllanishining asosiy mezonidir.

XIZMATLAR

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi – **3 086,4** mlrd. so'm

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi – **64,8 %**

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari – **113,6 %**



2022- yil
YANVAR-
FEVRAL

SOHASI

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi – **773,6** ming so'm

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar ulushi – **67,7 %**

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmalarning o'sish sur'atlari – **111,4 %**




Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 086,4** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **550,2** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati **113,6 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari





Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-fevral oylarida)	Hajmi, mldr. so'm	2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	3 086,4	113,6
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	152,5	118,0
Moliyaviy xizmatlar	519,4	127,8
Transport xizmatlari	655,5	111,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	612,0	108,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	91,6	112,2
Savdo xizmatlari	868,3	107,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	78,7	116,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	131,4	97,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	74,3	118,2
Ijara xizmatlari	96,0	98,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	84,7	108,2
Shaxsiy xizmatlar	138,9	109,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	105,4	144,3
Boshqa xizmatlar	89,7	123,6



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da



■ 2021- y. yanvar-fevral

■ 2022- y. yanvar-fevral




Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral

2022-yilning yanvar-fevral oylarida transport xizmatlari hajmi **655,5** mlrd. so'mga teng bo'lib, ularning o'sishi 2021- yilning shu davriga nisbatan **11,7 %** ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi **21,2 %** ni tashkil etdi.

Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi, % da (2022- yil yanvar-fevral oylarida)



2022- yilning yanvar-fevral oylarida transport xizmatlari umumiyligi hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **93,4 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-fevral oylarida ushbu transport turi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning ulushi **96,4 %** ni tashkil etgan.



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral



Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri kelmoqda. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da

2021- y. yanvar-fevral



 Yo'lovchi tashish

2022- y. yanvar-fevral



 Yuk tashish

2022- yilning yanvar-fevral oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **69,7 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-fevral oylarida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **69,9 %** ni tashkil etgan.



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral




Info

Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini iste'molchiga yetkazib berishdek zarur vazifani bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmida savdo xizmatlarining ulushi **28,1 %** ni tashkil etib, bu **868,3 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ularning hajmi **733,2 mlrd. so'mga** yoki umumiyligi hajmnинг **28,9 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari





Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral

2022- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiyl savdo xizmatlari hajmining to'rtadan uch qismini, aniqrog'i, **75,7 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **15,2 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajmni avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi (**9,1 %**) tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi, % da (2022- yil yanvar-fevral oylarida)

Ulgurji savdo xizmatlari
(avtomobillar va
mototsikllar
savdosidan tashqari)

Avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan tashqari
chakana savdo bo'yicha
xizmatlar

Avtomobillar va
mototsikllar ulgurji va
chakana
savdosi, jumladan, ularn
i ta'mirlash xizmatlarini
qo'shgan holda

15,2

75,7

9,1

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-fevral oylarida chakana savdo ulushi **75,7 %** ga yetdi



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2022- yil yanvar-fevral oylarida)

2022- yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **519,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-fevral oylarida ularning hajmi **406,3** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2022- yilning o'tgan davrida ularning umumiylar hajmidagi ulushi **16,8 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ularning ulushi **16,0 %** ni tashkil etgan.

2021- yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **113,1** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **27,8 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ularning o'sish surʼati **126,9 %** ni tashkil etgan.





Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **92,4 %** ni tashkil etdi.


2022- yilning yanvar-fevral oyilari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **3,8 %** oraliq'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **3,8 %** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2022- yil yanvar-fevral oylarida)

**Sug'urta va nafaqa
ta'minoti bo'yicha
xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**

**Sug'urta
bo'yicha
xizmatlar**



**Yordamchi
moliyaviy
faoliyat**

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmining **86,8 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **3,7 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **9,5 %**.



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekomunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2021- y.
yanvar-fevral

128,3

107,9

5,1

2022- y.
yanvar-fevral

152,5

118,0

4,9

Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

O'sish sur'ati,
% da

Jami hajmdagi
ulushi, % da



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2022- y. yanvar-fevral

97,8 %

131,4
mlrd. so'm

4,3 %

2021- yilga nisbatan
o'sish sur'atlari

99,6 %

Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari
hajmi

2021- y. yanvar-fevral

118,5
mlrd. so'm

Umumi
hajmdagi ulushi

4,7 %

2022- yilning yanvar-fevral oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **131,4** mlrd. so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumi hajmining **4,3 %** ini tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati **97,8 %** ni tashkil etdi.



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.
yanvar-fevral

2022- y.
yanvar-fevral

Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm

Xizmatlar jami hajmidagi
ulushi, % da

O'sish sur'ati, % da

56,3

74,3

2,2

2,4

115,4

118,2



13

Samarqand viloyatida xizmatlar sohasini rivojlantirish





Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral




Info

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.


Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



72,3

Xizmatlar
hajmi, mlrd.
so'm




110,4

O'sish sur'ati, % da




2,7

Xizmatlar jami
hajmidagi ulushi,
% da



91,6



112,2



3,0

2021- y.
Yanvar-fevral

2022- y.
Yanvar-fevral



14

Samarqand viloyatida xizmatlar sohasini rivojlantirish




Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral

2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **19,3** mlrd. so'mga ko'paydi.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da

2021- y.
yanvar-
fevral



Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar

2022- y.
yanvar-
fevral



2022- yil yanvar-fevral oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **94,1** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-fevral oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **92,0** % ni tashkil etgan.



15

Samarqand viloyatida xizmatlar sohasini rivojlantirish



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-fevral



Info

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligi, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligi va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

773,6
ming so'm



Hajmning o'sishi

125,4
ming so'mga

111,4 %

O'sish sur'ati

2022- yilning yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **773,6** ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati **111,4 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2021- yilning yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **648,2** ming so'mni tashkil etgan.

2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati **104,7 %** da qayd etilgan.